

## **Iqtisodiy tashkilotlar xodimlari o'qitilmoqda**

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3-avgustdagি 4796-sonli "O'zbekiston Respublikasi milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2- ilovasi bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 84-bandи ijrosini ta'minlash, hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar sifatini yanada yaxshilash, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda iqtisodiyot tarmoqlari xodimlarining "Statistika asoslari" bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida joriy yilning 24-26 noyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, kadrlar malakasini oshirish va tadqiqotlar instituti tomonidan "Statistika asoslari" mavzusidagi o'quv kursi tashkil etildi.

Image not found or type unknown



Unda kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor B. G'ayibnazarov shuningdek, institutning katta o'qituvchisi F. Umarov tomonidan Qoraqalpogiston Respublikasi, shahar va tuman hokimliklari hamda Respublika tashkilotlari iqtisodchi xodimlari malakasini oshirish maqsadida "Statistika" fani predmeti, uslublar, usullari va vazifalari, statistik kuzatish, statistik ko'rsatkichlar, mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar, o'rtacha miqdorlar va o'rtacha tuzilmaviy ko'rsatkichlar kabi mavzular bo'yicha ma'ruzalar o'tkazilishi rejalashtirilgan . Kelgusida ushbu bilimlar hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar sifatini yanada yaxshilanishiga hamda xalq xo'jaligida samarali qo'llashida xizmat qiladi.

Image not found or type unknown



Davlat statistika qo'mitasi Matbuot xizmati